

Navoiy viloyat statistika boshqarmasi



2018 yil yanvar-may oylarida Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **8858,0 mlrd.so'mni**, o'sish **1,9 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **-100,3 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **9,8 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **12,0%**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-may oylarida viloyatimiz korxonalaridan tomonidan **8858,0** mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,9 %** ni tashkil etdi.

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **65,4 %** tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarishning oshishiga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini ham munosib hissa qo'shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **28,5 %**, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **101,0 %** tashkil etdi.

2018 yil yanvar-may oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi





Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **2521,1** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **28,5** % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-may oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **5 793,3** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **65,4** % ni tashkil etdi.

Yanvar-may oylarida Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalaridan tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2017 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
Portlandsement, ming tonna			
1509		1503	100,4
Shifer, tonna			
6529,3		3349,2	195,0
Ammoniy nitrat, ming tonna azotga			
91,85		77,62	118,3

2018 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2017 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
-------------------------------	---	-------------------------------	----------------------

Temir beton, ming tonna

25,580



7,097

360,4

Paxta tolasi, ming tonna

18,8



22,6

83,3



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 473,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,3 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 70,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ni) tashkil etdi.




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 872,4 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-may oylariga nisbatan 100,3 %, jami sanoatdagi ulushi esa 9,8 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari




Yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.


Navoiy viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Navoiy shahri (viloytda sanoat ishlab chiqarish hajmning 83,8 % ulushini), Karmana (7,5 %), Qiziltepa (2,9 %), Xatirchi (1,9 %), Navbahor (1,6 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2018 yilning yanvar-may oylarida shahar va tumanlarda sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi, %




Shu bilan birga eng kam ulush Zarafshon shahri (0,8 %), Nurota (0,7 %), Uchquduq (0,3 %), Konimex (0,3 %) va Tomdi (0,2 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2018 yilning yanvar-may oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi o'sish sur'atlari , %



Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Qiziltepa tumani (2017 yilning yanvar-may oylarida nisbatan 113,4 %), Karmana (105,9 %), Navbahor (101,2) tumanlari va Zarafshon (105,5 %), Navoiy (101,3 %) shaharlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.


2018 yil yanvar-may oylarida shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmlari va o'sish sur'atlari



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.


2018 yil yanvar-may oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 12,0 % tashkil etmoqda.

Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi Navoiy shahrida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 3,1 %), Karmana (38,1 %), Navbahor (64,0 %) ,Xatirchi (69,6 %),Qiziltepa (71,5 %), Tomdi (95,4 %), Konimex (96,8 %), Nurota (99,0 %), Uchquduq (99,8 %), tumanlarida hamda Zarafshon shahrida (73,5%)kuzatildi



Bugungi kunda viloyatimizda 1622 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 516 tasi Navoiy shahrida, 294 tasi Karmana, 232 tasi Nurota, 183 tasi Qiziltepa, 115 tasi Xatirchi, 71 tasi Navbahor, 61 tasi Uchquduq, 39 tasi Tomdi, 29 tasi Konimex tumanlarida va 82 tasi Zarafshon shahrida joylashgan.

2018 yil 1 iyun holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni



Joriy yilning yanvar-may oylari davomida viloyatimizda 181 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 21,0 % Navoiy shahriga to'g'ri keladi.

**Navoiy viloyat statistika boshqarmasining
Sanoat statistikasi bo'limi**

Aloqa telefoni: (436) 223-33-29